

XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI IJTIMOIIY O'RNINING TARIXIY ILDIZLARI

Abdurashidova Dilorom Rustamovna

Qo'qon universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarning liderlik faoliyatini shakllantirishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy asoslari to'risidagi masalalar aytiladi. Shuningdek maqolada respublikada ayollar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar va ularning amaldagi natijalari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *ayollar, xotin-qizlar, islohatlar, qarorlar, liderlik, faoliyat, mehnat, haq-huquq*

Huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri aholining yuksak huquqiy madaniyatidir. Mamlakatning taraqqiyoti jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni talab qiladi. Ayollarning huquqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular aholining 51 foizini tashkil etadilar. Ayollar tarixda ko'pincha kamsitilgan va jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlatilgan. Insoniyat tarixida ayollar farzand ko'rib, oila xo'jaligini yuritish bilan cheklangan. Shuning uchun ayollarni huquqiy ta'limotga jalb qilish juda muhimdir, bu ularning huquqiy savodxonligini oshirir va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlaydi.

XX asr ayollar uchun muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu davrda ayollar oilaviy majburiyatlarini bajarish bilan birga, jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu degani, ayollar endigina mehnat qilib, o'z mehnatlariga munosib haq olish, dam olish, sog'lom turmush kechirish, ta'lim olish va hatto siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqlariga ega bo'lishdi.

Bu katta o'zgarishlarga erishishda BMTning ikkita muhim hujjati – “Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi” (1948) va “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi

Konvensiya (1979) katta rol o'ynadi. Ushbu hujjatlar ayollarning har qanday sabab bilan kamsitishiga yo'l qo'ymaslikni ta'kidlaydi va ayollarning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va boshqa barcha sohalarida erkaklar bilan teng huquqli bo'lishini ta'minlashga chaqiradi. BMT davlatlarga ayollarga nisbatan kamsitishga qarshi qonunlar qabul qilishni va ayollar ham erkaklar kabi teng huquqli bo'lishini ta'minlash uchun ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni amalga oshirishni tavsiya etadi¹.

Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ham bog'liqdir. Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar. Gender g'oyasigacha o'tish evolyusiyasi mobaynida quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o'tildi. Mazkur bosqichlar to'rt tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Diniy konfessional taqiq tizimi amal qilgan. Tarixiy manbalar aynan ayolni insoniyat madaniyatining asoschisi deb atashadi. Haqiqatan ham mehnatning ibtidoiy jamoa tuzumida taqsimlanishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil yig'uvchilar vazifasini bajarganlar. Faqat ayolgina yerdan to'yimli o'simlik ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar lichinkasini qazib olish bilan mashg'ul bo'lgan. Rivoyatlarda olovni kashf etganlar erkaklar timsolida uchraydi.

Ayollar olovning xususiyatlarini o'rganish, uni turmushda qo'llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zarurlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan².

¹ Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариغا барҳам бериш тўғрисидаги Конвенция. Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 1998. –Б.1-3.

² Холматова М. Жамиятда аёлларнинг ўрни (тарихий-фалсафий таҳлил). /Экология ва аёл. Фарғона. 2001. –Б 109-110

Ona urug‘i davrida ayollarning mavqei yuqori bo‘lgan. Ayol asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ro‘zg‘orni muhofaza qiluvchi, bola tarbiyalab, avlodning ko‘payishini ta‘minlovchi zot hisoblangan. Bu esa unga urug‘, qabila hayotida yetakchilik qilish imkonini bergan. Urug‘-aymoqchilik davri ma‘budalari ayollar timsolida tasvirlangan, qabilani boshqarish, aybdorlarni jazolash, hatto boshqa qabilalar ustiga qo‘shin tortish ham ayollar ixtiyorida bo‘lgan. Ijtimoiy huquqiy nuqtai nazardan bu davrni ilmiy adabiyotlarda “ayol huquqi”³ xukmron bo‘lgan davr deb atashadi. L. Morgan, F. Engels, G. Ploss, E. Teylor asarlarida ona urug‘i davri (matriarxat) da ijtimoiyhuquqiy va siyosiy masalalar ayollar qo‘lida bo‘lganiga ko‘plab misollar keltiriladi. Biroq ota urug‘i (patriarxat) davriga o‘tilishi bilan ijtimoiy-huquqiy muvozanat ayoldan erkak tomonga og‘adi va erkak asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga, davlatni boshqaruvchiga aylanadi. Ijtimoiytarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlari ayolni erkakka qaram qilish, uning psixologik, xo‘jalik yuritish va bola ko‘rishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish yo‘lidan bordi.

Ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg‘in bahslarga sabab bo‘lib kelgan. Miloddan 400 yillar avval yashagan sofist Antifont o‘z asarlarida barcha odamlarning tabiattomonidan teng qilib yaratilganligi haqidagi g‘oyani birinchilardan bo‘lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlar o‘zlarini tengsiz holatga soluvchi qonunlar odamlarning o‘zaro kelishuvi natijasidir⁴.

Tabiiy huquqlar tengligi va barcha odamlarning erkinligi haqidagi g‘oyani sofizm oqimining boshqa namoyondalarida ham uchratamiz. Jumladan, Likofronning fikricha, faqat qonunlargina shaxsiy huquqlarning kafolati bo‘lishi mumkin⁵.

³ Бебель А. Социализм и женщина. М.: Госполитиздат. 1959. -С.49.

⁴ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент – 2009. –Б. 9.

⁵ Нерсесянц. История идей правовой государственности. М.: 1993. с.5

Ayol va erkak teng huquqliligi muammosi doimo hur fikrli insonlarning diqqat markazida bo‘lgan. Bu masala tarixiy jihatdan e’tiborga molikdir. Aynan Pifagor ayolning erkak bilan teng huquqli ekanligini e’tirof etgan. U, odamlarning turmushini isloh qilishda falsafaning huquq va erkinlik to‘g‘risidagi qarashlarini muvofiqlashtirish zarurligini ta’kidlagan. Pifagor o‘z dastlabki fikrlarida ayol va erkakning teng qilib yaratilishi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Uning maslakdoshlari bu g‘oyani davom ettirgan holda, inson hayotining adolat va chegara asosida qurilishi lozimligini ta’kidlaydilar⁶.

Ushbu mazmundagi g‘oyani yana bir yunon mutafakkiri Suqrot qonunlarning ob‘yektiv ahloqiy tabiati to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotida rivojlantirgan. Jumladan, u ham insonlarning tabiiy huquqlari tengligini e’tirof etar ekan, polisning mantiqan to‘g‘ri va adolatli qonunlargagina bo‘ysunishi lozimligini va faqat shunday holatdagina inson erkinligini ta’minlash mumkinligi g‘oyasini ilgari suradi.

Shaxs erkinligi va ozodligi, inson va fuqaro huquqi haqidagi ilg‘or g‘oyalarni ilgari surganiga qaramay, qonunga itaotkor va ahloqiy ish yuritgan Suqrot o‘lim jazosiga mahkum etilgan. U agar menga xudolar shuni ravo ko‘rishgan ekan, demak men shunga loyiq ekanman, degan fikrni bildiradi. Suqrot izdoshlaridan biri bo‘lgan Platon uning rasionalistik (aqlga asoslangan) g‘oyalarini rivojlantiradi. U Suqrot va Pifagor ta’limotining inson huquqlari va erkinligi borasidagi g‘oyalarini davom ettirib, “Ideal davlat” asarida atroflicha talqin etadi. O‘z asarida Platon ideal davlatda ayolning o‘rniga nisbatan qarashlari uning biologik va madaniy, xususiylik va ommaviylik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlashtiradi. U ayollar va erkaklar o‘rtasidagi o‘zaro teng huquqlilikni e’tirof etib, insoning qanday ijtimoiy foydali mehnatni bajarishiga qodirligiga qarab jinslar o‘rtasidagi biologik tafovutlarni nomuhim tafovutlar deb izohlaydi. Ayolning reproduktiv holati ularni faqat uyro‘zg‘or ishlari bilan chegaralanib, ijtimoiy vazifalardan chetlatilishiga asos bo‘la olmaydi, deb

⁶ Николаев Н. “Кто такой Пифагор?” Универсальная энциклопедия. Д.Д. Т.2, с. 422-423

uqtiradi. Shu bois biz Platonni jinslar tengligining ilk himoyachisi deb aytishimiz mumkin. U yigit va qizlarning ta'lim olishi, erkin kasb tanlashi, o'z qobiliyatiga yarasha ijtimoiy mavqeni egallashi kabi teng imkoniyatlarni qo'llab- quvvatlagan. Ammo yuqoridagi fikrlar Platonni feminizm tarafdori bo'lgan deb qarashga asos bo'la olmaydi. U ayollar va erkaklarga teng huquqlar beradi, lekin bu uning ayollar shug'ullanib kelgan an'anaviy faoliyat sohasini nazardan soqit qilishi evaziga yuz beradi⁷.

Qadimgi zamonlarda ayolning ijtimoiy holati turli mintaqalarda o'zgarib turgan. Ularning oiladagi va jamiyatdagi o'rni ko'pincha faqat erkaklarning ta'rifidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalar ayollarga asrab-do'st klassik erkaklardan past qaror topishini ko'rsatadi. Gap toki ayollarga inson sifatida munosiblik bo'lmadi.

Ayollarga adolatli munosabat joriy qilish uchun jamiyatning o'sishi, ta'lim va o'zgarishlar lozim bo'lgan.

Asrlar davomida ayollar jamiyatda kamsitilgan. Ularning ishlarini kam baholab, o'z fikrlarini ochiq ayta olmasligiga yo'l qo'yilmagan. Ba'zi ayollar bu holatga ko'nikib qolgan bo'lsa, boshqalari esa bunga qarshi kurashgan. Uy ishlari, oilaviy mas'uliyatlar ayollarni bog'lab qo'ygan. Erkaklarning so'ziga qarshi chiqolmaslik, haqoratlar chidash ayollarda qo'rquv va o'ziga ishonchsizlik tug'dirgan.

Shunday bo'lsa-da, biron dinda ayollarning ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng ekanligini (ularning xudo oldidagi tengligi bundan mutasno), ularni davlat, cherkov va diniy idoralar ishida teng qatnashishi mumkinligini e'tirof etuvchi manba uchramaydi. "Teologiyaga oid adabiyotlar esa erkaklarning ayollarga nisbatan antifeministik qarashlarini asoslashdan iborat. Xush nomusli yahudiy ham, jazavali hindu ham, mag'rur musulmon ham ayol qilib emas, erkak qilib yaratilgani uchun o'z xudolariga shukronalar aytadilar"⁸.

⁷ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент – 2009. –Б. 11.

⁸ Усачева Н. Женщина:ее статус, судьба и образ в мировой культуре.–Алматы. Гылым. 1994.–С. 149

Qadimgi Hindistonda ayol turmush qurish, meros va boshqa hech qanday huquqqa ega emasdi. U nopok tamoyilga, zaif fe'lgacha, yomon axloqqa ega deb hisoblanib, Manu III qonuni uni bolaligida otasiga, yoshligida eriga, erining vafotidan so'ng o'g'liga yoki erining qarindoshlaridan bir erkakka qaram bo'lmoqqa majbur etardi. Hatto ba'zi joylarda eri o'lgach, ayolga yashash taqiqlanardi. Marhum eri bilan uni tiriklayin yoqib yuborish an'anasi ham paydo bo'ldi⁹.

O'lmay qolgan bevalar esa ayanchli ahvolda yashar edi. Hinduizm aqidasi ko'ra, beva motam kiyimida yurishi kerak. Ularning bir kunda bir marta ovqatlanishi, sochlari usturada qirilishi majbur edi, bevalar bayram va to'ylarda ko'rinmasligi lozim bo'lib, biron-bir erkak unga uylanmas, basharti uylansa, u avvalo o'z toifasidan chiqarilar va haydalardi.

Hindlarning muqaddas kitobi - "Veda"da ayol momaqaldirondan, o'limdan, zahardan va ilondan ham yomonroq jonzot sifatida tasvirlanadi. Buddizmning ayrim yo'nalishlarida ayollar obrazlari muhim o'rin egallaydi. Buddizmning asosiy yo'nalishi bo'lmish –maxayanada ayol yaxshi, farovon hayot ichida ko'rsatilgan bo'lishiga qaramay, muqaddas yozuvlarda ayollarning ziddiyatli tasvirlanishi natijasida erkaklarning ayollarga nisbatan ikki xil munosabati aks etirilgan. Bir tomondan ayol dono, muloyim, mehribon qilib ko'rsatilsa, boshqa tomondan esa u kishini yo'ldan ozdiruvchi, buzg'unchi mavjudot sifatida ta'riflanadi.

Xristianlikda esa, asosan, V asrgacha, ayolga nisbatan past nazar bilan qaralgan, unda ayol erkakni yo'ldan uruvchi iblisga yaqin mavjudot sifatida talqin qilingan. Rim jamiyatida nimaiki ko'ngilsizliklar, tartibsizliklar hukm sursa, uning sababini ayoldan qidirdilar. Ular tinimsiz ayollar haqida bahslashar va o'zlarinig nomaqbul ta'riflarini berib, o'z so'zlarini ma'qullashar edi. Jumladan, qirol va poplar "Ayoliflos", deya baho berdilar. "Uning go'zalligidan ehtiyot

⁹ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент – 2009. –Б. 11.

bo‘lish lozim. Zero, u fitna va g‘urur uchun iblisning qurolidir”, deya xitob qildilar. Ularga qo‘shimcha tarzda ayrimlari ayol to‘g‘risida, u inson nafsiga shaytonni kiritgan, ayol erkakni Alloh taqiqlagan daraxtga yaqinlashtirgan. Allohning qonunlarini buzgan, erkakni chirkinlashtirgan”, - degan fikrni bildirganlar. “Uning gunohkor ekani muqarrar, muhaqqaqdir. Ayol qiziqarli ofatdir. Uy va oila uchun tahlikadir. G‘addor bir sevgili, sirli, noma‘lum davomli musibatdir” degan xulosa bildirgan. Xavvoriy Pavel o‘zining korinfliklarga Birinchi yo‘llanmasida Siseron “ayollar bo‘lmaganda, erkaklar xudo bo‘lar edi” deganini, Koton, “agar hayotda ayollar bo‘lmaganida, biz xudolar bilan muloqotda bo‘lar edik”, deganini aytib, o‘sha davrning ayollarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi¹⁰.

Islomgacha bo‘lgan davrda, ya‘ni johiliyat davrida arab qabilalarida ayollar juda kamsitilgan. Qiz farzand tug‘ilganda oilada qayg‘u bo‘lib, ba‘zi qabilalarda hatto qizlar tiriklayin ko‘milib ketilgan. O‘g‘il bola esa merosxo‘r sifatida juda qadrlangan. Ayollar erlarining mulki deb hisoblangan va ularning ijtimoiy mavqei juda past bo‘lgan. Erkaklar ayollar bilan teng huquqli bo‘lmagan, ularni o‘zlaridan past darajadagi mavjudot deb hisoblashgan¹¹.

Qadimgi arab qabilalarida, jumladan, Quraysh va Hind kabilarda qiz bola tug‘ilganda uni tiriklayin ko‘mib tashlash dahshatli odati mavjud edi. Buning sababi, ular qiz bolaning oilaga baxt keltirmasligiga ishonishardi. Ko‘chmanchi arablar omon qolgan qiz bolalarga og‘ir mehnatni yuklab, ularni doimo kamsitardi. Ba‘zida esa, qizcha olti yoshga to‘lganda uning otasi uni olis safarga olib ketaman deb, tayyorlangan chuqurga tashlab, ustini tuproq bilan bekib ketardi. Rivoyatlarga qaraganda, homilador ayollarni yolg‘iz xonaga olib kirib tug‘dirishar va agar tug‘ilgan chaqaloq qiz bo‘lsa, uni darhol shu yerga ko‘mib tashlashardi. Johiliyat davrida ayollarning hayoti erkakka qaram edi. Qizning turmushga berilishida uning fikri va yoshi muhim ahamiyatga ega bo‘lmasdi. Erkakning otasi yoki yaqin qarindoshi kelin bo‘ladigan qizning otasidan uni

¹⁰ Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар.–Т.: Ўзбекистон.2003. –Б.26.

¹¹ Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986. С.13.

so‘rab kelardi. Bu ishga “xitba” deyilardi. Mahr to‘langach, nikoh o‘qilardi. Arablarda bunday noinsoniy va axloqsiz nikoh turlari juda ko‘p uchrar edi¹².

Islom dini paydo bo‘lish arafasida dunyoda ikki kuchli davlat – Rim va Eron o‘rtasida kuchli raqobat kechar edi. Ular boshqa xalqlarni o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirishga harakat qilardi. Rim – nasroniylik dinini qabul qilgan, Eron esa otashga sig‘inuvchilar yurti edi. Bu davlatlarda adolatsiz qonunlar hukm surib, inson huquqlari poymol etilardi. Ichki janjallar tufayli ular zaiflashgan edi. Arabiston yarim oroli doimo bu ikki davlatning tajovuzlariga uchrab turardi. Islom dinining paydo bo‘lishi Arabistondagi ijtimoiy va siyosiy hayotni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan dastur sifatida qabul qilindi. Hayotning barcha sohalarini qamrab olgan Islom ayollar huquqlariga ham katta e‘tibor qaratdi¹³.

Islom dunyosida eng birinchi ta‘lim muassasalari, ya‘ni maktablar, madrasalar va masjidlar ochildi. Bu muassasalar odamlarni diniy va dunyoviy bilimlar bilan boyitishga muvaffaq bo‘ldi. Diniy va boshqa fanlarni o‘rganishda ayollar ham, erkaklar ham teng huquqli edi. Chunki Islomda ilm olish har bir insonning, hohlasi erkak bo‘lsin, hohlasi ayol bo‘lsin, muqaddas burchi hisoblanadi. “Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” degan hadis ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Islom ta‘limotiga ko‘ra, dindagi eng muhim uch tayanch – ilm, amal va ixlosdir. Ammo, to‘rt xalifadan keyingi davrlarda ba‘zi noto‘g‘ri fikrlovchi din peshvolari ayollarning bilim olishini man qiluvchi yolg‘on hadislarni tarqatishgan. Holbuki, Payg‘ambarimiz va Horun ar-Rashid davrida ayollar ilmning eng yuqori cho‘qqilariga erishganlar. “Agar kimdir muslima ayollarning bilim olishini din man qiladi, desa, bilsin-ki, u kishi Islomga xiyonat qilgan”¹⁴, degan hadis ham ayollarning dinimizdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Islom dinining ko‘plab yaxshi jihatlari bo‘lishiga qaramasdan, ayollarga nisbatan ba‘zi kamsituvchi qarashlar ham bo‘lgan. Masalan, ayollar uzoq vaqtlar

¹² Азимов А. Ислам ва ҳозирги замон.-Т.:Ўзбекистон.1991,-Б.5

¹³ Жабборов С. Муслмон ҳуқуқи ва одат нормалари. Т.: 2001.- Б.47

¹⁴ Жабборов С. Муслмон ҳуқуқи ва одат нормалари. Т.: 2001.- Б.47

davomida faqat oila ishlari bilan shug‘ullanib kelganlar, erta turmushga berilish, ko‘p xotinlilik va ayollarga nisbatan zo‘ravonlik kabi holatlar ham uchrab turgan. Bu kabi holatlar ayollarning huquqlarini cheklab kelgan. O‘tmishda ayollarni kamsitish jamiyatda odat tusiga kirib qolgan va buni ba’zi qonunlar bilan oqlashga harakat qilingan. Masalan, Mesopotamiya va qo‘shni yerlarda shumer qonunlariga ko‘ra, bir ayol eriga: “Sen mening turmush o‘rtog‘im emassan” desa, ya’ni ajralishmoqchi bo‘lsa, uni daryoga otib o‘ldirishar edi. Agar erkak xotiniga: “Sen mening rafiqam emassan” desa, erkak unga bir ozgina kumush to‘lashi kerak edi. Albatta, bunday adolatsizliklar ayollarning ruhiy holatiga juda katta ta’sir ko‘rsatar edi. Shuning uchun ham ayollar har qanday zo‘ravonlik va adolatsizlikka chidab yashashga majbur bo‘lar edi¹⁵.

Qadimgi Bobilning Hammurappi va Afinaning Solon qonunlarida ayollarning mulkka bo‘lgan huquqlari haqida hech qanday ma’lumot berilmagan. Solon o‘z qonunlarini “barcha uchun bir xil” deb ta’kidlagan bo‘lsa-da, ayollar mulkka egalik qila olmagan, sud jarayonlarida ishtirok eta olmagan va saylovlarda ovoz bera olmagan. Bevafo xotinlarga o‘lim jazosi berilgan yoki qulga aylantirilgan.

Shumer qonunlarida esa ayrim qoidalar yanada mukammalroq shakllantirilgan. Misol uchun, bir xotin bilan turmush qurish asosiy qoida bo‘lsa-da, ba’zi hollarda bir necha xotin olishga ruxsat berilgan. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda ayolning manfaatlarini himoya qiluvchi ba’zi moddalar mavjud bo‘lgan¹⁶.

Qadimgi Yunonistonda ham ayollar juda achinarli ahvolda bo‘lishgan. Ularga bozordagi bir narsadek munosabatda bo‘lishgan. Ayollar hech qanday huquq va erkinlikka ega emas edilar, lekin ularga qattiq burchlar yuklatilgan edi. Bunga ko‘ra, ular butun umrlari davomida erkakning buyrug‘iga bo‘ysunishga, uning istagan harakatlarini bajarishga majbur edilar. Ayol butun umri davomida

¹⁵ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент – 2009. –Б. 20.

¹⁶ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент – 2009. –Б. 21.

bir erkakning ixtiyorida bo‘lib, hayoti va o‘limi o‘sha erkakka bog‘liq edi. O‘sha erkak istagan ayolni o‘ziga xotin qilib olishni taklif qilar va ayolni majburan o‘z tasarrufiga olardi. Barcha mol-mulk erkakning ixtiyorida bo‘lib, uning roziligisiz ayol hech qanday narsaga hukmronlik qila olmas edi. Ajrashish ishlarida er mutlaqo haq edi. Ba‘zi hollarda ayol ham ajrashishni istashi mumkin edi. Bunday hollarda ayolga adolasiz ayblovlar yuklatilardi¹⁷.

Xitoyda ayol kishiga inson sifatida qaralmasdi, unga hatto ism ham qo‘yilmasdi. Ayollarni raqamlar bilan atayverishardi: birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo. Og‘il bolalarni yuksak qadrlashardi, qiz bolalarga esa juda past nazar bilan qarashardi. Agar oilada qiz tug‘ilsa, uni farzand deb hisoblashmagan. Xitoyda qizlarni buyumdek sotishardi, kim ko‘p pul bersa, o‘shaning mulki bo‘lishardi. Ular erkaklar bilan teng o‘tirib ovqatlana olmasdi, faqat erkaklarning barcha istaklarini bajarishi kerak edi. Ayollar turmushga chiqsa, merosdan mahrum bo‘lishardi. XX asr boshlarigacha Xunxe va Yanszi daryolariga bag‘ishlangan bayramlarda go‘zal qizlarni qurbonlik qilishardi¹⁸.

Feminizm - ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotda erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi uchun olib borilayotgan kurash hamda ushbu kurashda ayollarning faol ishtirokidir. Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda feminizm bir necha bosqichga bo‘linadi. Jumladan, dastlabki feminizm XVIII asrda paydo bo‘lib, XIX asr oxiriga qadar o‘z ta‘sirini saqlab qolgan. Bu davrda ayollar barcha yirik harakatlarda qatnasha boshladilar. Fransiyada ayollarning tenglik uchun kurashiga bag‘ishlangan ilk jurnal chop etildi, dastlabki ayollar inqilobiy klublari tashkil topdi va ular siyosiy kurashlarda faol ishtirok etdilar¹⁹.

O‘tgan asrning 20-yillarida O‘zbekistonda ayollarni erkinlashtirish, ularga teng huquq berish masalasi dolzarb edi. Bu maqsadda tashkil etilgan jamoat tashkilotlari ayollarni savodsizlikdan xalos etish, ularni ijtimoiy hayotga faol qo‘shib ishlatishga harakat qilgan. Bu ishlar natijasida oila doirasidan

¹⁷ Маткаримова Г. Аёл ҳуқуқлари. Т.: 2001. -24 б.

¹⁸ Усачева Н. Женщина: ее статус, судьба и образ мировой культуры. – Алматы., Гылым, 1994, с. 137

¹⁹ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент – 2009. –Б. 25.

tashqariga chiqib, jamiyatda erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo'lgan yangi avlod voyaga yetgan²⁰.

Insoniyat tarixida ayollarning mavqei jamiyatning oilaviy munosabatlarga bo'lgan ehtiyojiga qarab shakllanadi. Oilaviy munosabatlar jamiyat hayotini belgilovchi muhim omil sifatida qabul qilingan xalqlarda ayollarning o'rni yuqori bo'lgan. Shuning uchun insoniyat tarixining boshlanishida, ya'ni onalik tuzumi hukmron bo'lgan davrda ayollar juda katta obro'-hurmatga ega bo'lib, jamiyat rivojida muhim rol o'ynaganlar.

Keyinchalik oilaviy turmush o'z ahamiyatini yo'qotgach, ayollarning ijtimoiy mavqei pasaydi²¹. Jamiyat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etdi, lekin ayollarning obro'-e'tibori o'zgarmadi.

Aslida, jamiyat ayolning mehnat faoliyatidagi o'rnini qanday baholashi, oila muassasasiga qanday qarashi bilan belgilanadi. Insoniyat avlodining kelajagini ta'minlash uchun barcha kuch-g'ayratni oilani mustahkamlashga qaratishi, oilaning jamiyatdagi o'rnini yanada muhimlashtirishi lozim. Faqat shundagina ayol kishining ijtimoiy mavqei oshadi, unga bo'lgan hurmat-ehtirom ortib boradi. Agar jamiyatda faqat mehnatga bo'lgan qarash o'zgarib, oila masalasi orqada qolib ketsa, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar muvozanatsiz bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариға барҳам бериш тўғрисидаги Конвенция. Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 1998. –Б.1-3.
2. Холматова М. Жамиятда аёлларнинг ўрни (тарихий-фалсафий таҳлил). /Экология ва аёл. Фарғона. 2001. –Б 109-110
3. Бебель А. Социализм и женщина. М.: Госполитиздат. 1959. -С.49.
4. Нерсисянц. История идей правовой государственности. М.: 1993. с.5

²⁰ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 жилд. Т.: Шарк, 2000. –Б 375- 376.

²¹ Муравьева Н. Ўзбекистон хотин-қизлари ижтимоий мақомини юксалтириш. – Т.: – 2004. –Б.23 .

5. Николаев Н. “Кто такой Пифагор” Универсальная энциклопедия.Д.Д. Т.2,с. 422-423
6. Усачева Н. Женщина:ее статус, судьба и образ в мировой культуре.– Алматы. Гылым. 1994.–С. 149
7. Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар.– Т.: Ўзбекистон.2003. –Б.26.
8. Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986. С.13.
9. Азимов А. Ислом ва ҳозирги замон.-Т.:Ўзбекистон.1991,-Б.5
10. Жабборов С. Мусулмон ҳуқуқи ва одат нормалари. Т.: 2001.- Б.47
11. Жабборов С. Мусулмон ҳуқуқи ва одат нормалари. Т.: 2001.- Б.47
12. Маткаримова Г. Аёл ҳуқуқлари. Т.: 2001. -24 б.
13. Усачева Н. Женщина: ее статус, судьба и образ мировой культуре. – Алматы., Гылым, 1994, с. 137
14. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 жилд. Т.: Шарқ, 2000. –Б 375- 376.
15. Муравьева Н. Ўзбекистон хотин-қизлари ижтимоий мақомини юксалтириш. – Т.: – 2004. –Б.23 .